

Date: 17th June-2025

ABDULLA QAHHORNING “BEMOR” HIKOYASI ASOSIDA MATN TAHLILI:
FONOLOGIK, GRAMMATIK VA SEMANTIK DARAJALAR

Xo‘jamurodova Iroda Anvar qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Badiiy matn tuzilishida grammatik vositalar — morfologik va sintaktik shakllar — matnning mazmuniy yukini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Gap qurilmalarining yuzaga kelishi muallifning uslubiy tanlovigina emas, balki matnning g‘oyaviy yo‘nalishi, syujet ehtiyoji va badiiy konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Аннотация: Грамматические средства — морфологические и синтаксические формы — играют важную роль в определении смысловой нагрузки художественного текста. Появление конструкций предложений обусловлено не только стилистическим выбором автора, но и идейным направлением, сюжетной необходимостью и художественной концепцией текста.

Abstract: Grammatical means — morphological and syntactic structures — play a crucial role in conveying the semantic load of a literary text. The formation of sentence constructions is determined not only by the author’s stylistic choices but also by the ideological direction, narrative necessity, and artistic concept of the text.

Kalit so‘zlar: Semiotika, struktura, grammatika, gap qurilmalari, matn darajalari, fonema, fonologik tahlil, sintaktik butunlik.

Ключевые слова: семиотика, структура, грамматика, синтаксические конструкции, уровни текста, фонема, фонологический анализ, синтаксическая целостность.

Keywords: semiotics, structure, grammar, sentence constructions, text levels, phoneme, phonological analysis, syntactic integrity.

Dastlab amerikalik mantiqshunos Ch.Pirs va shveysariyalik tilshunos F.de Sossyur asarlarida bir vaqtning o‘zida va mustaqil ravishda qayd etilgan semiotika atamasi bugungi kunda ko‘plab tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘rganilib kelinmoqda va u amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega ilmiy yo‘nalish hisoblanadi.

Badiiy matn semiotika nuqtayi nazaridan belgilar tizimi sifatida qaraladi. Uning har bir unsuri (so‘z, obraz, syujet, til vositalari) – bu ma’no yaratuvchi belgidir. Bunday yondashuv badiiy asarlarni chuqurroq, ilmiy-nazariy asosda talqin qilish imkonini beradi.

Adabiyotshunos, strukturalist olim Yu.M.Lotmon o‘zining “Badiiy matn strukturasi” nomli asarida matnni murakkab belgilar tizimi deb qaraydi va undagi ma’no hosil bo‘lishi paradigmatic, syntagmatic, fonologik, grammatik hamda semantik qatlamlarning o‘zaro bog‘liqligi orqali amalga oshishini ko‘rsatadi.[3,29]

Biz bu o‘rinda mazkur tadqiqotchi va boshqa mualliflarning ishlariga tayangan holda Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasi matniy parchalaridagi belgi qurilmasida namoyon bo‘lgan ayrim darajalarni ko‘rib chiqamiz.



Date: 17th June-2025

Hikoya matnini fonologik darajada tahlil qilganimizda, har bir til birligi tarkibida bir yoki bir nechta o fonemasining qatnashayotganini kuzatish mumkin: bemor, osmon, Sotiboldi, xotini, og‘rib qoldi, bemorning boshi, bemor azob tortdi, bemorning sochlari, oxiri, bemor, qaytib ochmadi kabi birliklarda bu fonema takror-takror qaytarilgan. Mazkur 14 ta leksik birlik tarkibida o fonemasi jami 18 marta ishlatilganini ko‘rish mumkin. Fonetik tasnifga ko‘ra, “o” unlisi hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra — til orqa, tilning harakatiga ko‘ra — past ko‘tariluvchi, lab ishtirokiga ko‘ra esa lablangan fonema hisoblanadi. Bu tovush o‘zining akustik imkoniyatlari va eshitiluvchanligi bilan ham ajralib turadi. Fikrimizcha, matndagi fonematik takrorlar tasodifiy emas — ular badiiy belgilar tizimidagi konnotativ (yashirin) ma‘no yuklovchi birlik sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa “o” fonemasining bunday ta’sirchan tarzda ishlatilishi matnda insoniy fojiga, og‘riqli holatlarga, ruhiy iztirob va dramatik vaziyatlarga urg‘u berish vositasiga aylangan. Boshqacha aytganda, bu fonemaning ko‘p marotaba qaytarilishi orqali syujet keskinligi, qahramon hissiyotlarining intensivligi, voqealidagi fojialik manzarasi kuchaytiriladi. Bunday yondashuv, ayniqsa, hikoya tarkibidagi boshlang‘ich jummalarda — kirish qismida qo‘llangan bo‘lib, asarda asosiy dramatik holatga zamin yaratadi. Shu tarzda o fonemasining qo‘llanishi, tadqiq etilayotgan hikoyaning ichki ohangiga uyg‘un tarzda mos keladi va semantik darajada muhim yuklamaga ega bo‘ladi.

Matnning fonologik qatlamini tahlil qilganimizda, o tovushidan keyin s undosh fonemasi faol ishlatilganligini ko‘rish mumkin. Bunga misol sifatida osmon, Sotiboldi, kechasi, sochlari, siladi, so‘ngra, o‘sal, sahar kabi so‘zlarni keltirish mumkin. Ushbu misollarda jami 8 ta leksik birlikda s nutq tovushi 8 marta uchraydi. Bu birliklar bevosita badiiy matndagi belgilar tizimi tarkibiga kiradi. Ayniqsa, Sotiboldi nomi matnda to‘qqiz marotaba takrorlangan bo‘lib, bu nom tarkibida “s” fonemasining qatnashgani bejiz emas. Sotiboldi — matndagi markaziy obraz sifatida o‘zida ma‘lum konnotatsiyalarni jamlagan: u, ehtimol, yolg‘iz farzand, oilaning nozik rishtasi, jamiyat tomonidan e‘tibordan chetda qolgan shaxs timsoli sifatida ifodalangan. Uning nomidagi “s” tovushi esa til oldi, sirg‘aluvchi, jarangsiz fonema bo‘lib, baland, jarangdor ohangda emas, balki ichki, sekin, noaniq tovush orqali ifodalanadi. Shu xususiyati bilan bu fonema matnda hissiyotning bosikligi, tuyg‘ulardagi ezginlik, jamiyat e‘tiborsizligidan tug‘ilgan ma‘yuslik holatlarini badiiy tasvirlashda yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Shu bilan birga, matnda q va g‘ kabi undosh fonemalar ham o‘ziga xos emotsional-semantik yuklamaga ega bo‘lib, ular ham muhim badiiy vazifani bajaradi. Bu tovushlarning faol ishlatilgani og‘rib qoldi, tovuq so‘yib qonladi, yo‘g‘on, og‘irlashdi, Abdug‘aniboy, oyoqqa bostirib berish, otasining g‘azabi, G‘avsula‘zam, uyqu g‘ashligi, qizcha uyg‘ondi kabi birliklarda ko‘rinadi. Bu fonemalar tarkibida ishtirok etgan so‘zlar ko‘pincha fojiaiy yoki keskin vaziyatlarni, ruhiy tushkunlik yoki jismoniy holatni, xurofiy urf-odatlariga asoslangan harakatlarni ifodalaydi. Masalan, og‘rib qoldi, og‘irlashdi, otasining g‘azabi iboralari orqali oiladagi fojiaiy muhit, tovuq so‘yib qonladi orqali esa jamiyatda mavjud xurofot aks ettiriladi. Shu bilan birga, uyqu g‘ashligi, qizcha uyg‘ondi

Date: 17th June-2025

iborolari esa shaxsning ruhiy holatini ifodalaydi. Demak, bu fonemalar badiiy konseptni semantik nuqtayi nazardan boyituvchi fonetik elementlar bo'lib xizmat qiladi.

Shunga qaramay, shuni ta'kidlash lozimki, unli va undosh fonemalar matnda mustaqil g'oya yoki mazmunni to'liq ifodalamaydi. Ular muallif fikrini estetik jihatdan kuchaytirish, ma'lum kayfiyatni uyg'otish, dramatik muhit yaratish kabi ikkinchi darajali, yordamchi vosita sifatida ishlatiladi. Fonologik birliklar aynan shunday funksional yuklama orqali badiiy matnning umumiy strukturasiga uyg'unlashadi va uni boyitadi.

Yuqoridagi mulohaza va fonologik-semantik tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy matn strukturasini oddiy shakl emas, balki o'zaro bog'liq elementlar tizimidan tashkil topgan murakkab tuzilmadir. Ushbu tizimda quyidagi omillar asosiy strukturaviy negiz sifatida alohida o'rin tutadi:

Belgi munosabatlari – ya'ni belgilar o'rtasidagi semantik va konnotativ aloqalar;

Matn darajalari – fonologik, grammatik, sintaktik va semantik qatlamlar birligida yuzaga keladigan ko'p qavatli matn tuzilmasi.

Har qanday matn alohida yakka birlik sifatida mavjud bo'lish bilan chegaralanmaydi. U doim boshqa matnlar bilan munosabatga kirishadi, ularga havola qiladi yoki ularning mazmunini maydoniga kiradi. Bu hol Lotman tomonidan matnning ochiqligi, ya'ni uning boshqa matnlar bilan dialogga kirishuvchanligi sifatida izohlanadi. Demak, badiiy matn bu – chegaralanmagan, doimiy harakatdagi, o'zidan tashqariga intiluvchi intertekstual hodisadir.

Badiiy matn o'z mohiyatiga ko'ra ochiq adabiy-poetik tizim sanaladi. Uning strukturasini tashkil etuvchi asosiy belgilardan biri — bu belgiviylilik, ya'ni matnning mazmunini bevosita yoki bilvosita belgi orqali namoyon qilishi. Ikkinchi muhim jihat — strukturaviylilik, ya'ni matnning muayyan tizimli shaklda tashkil etilishi. Ana shu ikki omil – belgi orqali ifodalanish va strukturaviy uyushganlik — badiiy matnning o'zligiga, uning ichki mohiyatiga va adabiy g'oya-yu maqsadiga bevosita daxldor bo'lgan jihatlardir.

Shunday qilib, matn – bu nafaqat til vositalari yig'indisi, balki undagi har bir belgining, qatlamning, tovush va strukturaning o'zaro aloqasi orqali paydo bo'ladigan, dinamik, ko'p qirrali va konnotativ imkoniyatlarga ega bo'lgan murakkab semiotik tizimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Олти томлик. 1-том. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1967. – Б. 56.
2. ABDUGANIEVNA, S. R. The Role of Semiotics in Literature. JournalNX, 6(09), 190-193.
3. Лотман Ю. М. Структура художественного текста / Ю. М. Лотман «Эксмо», 2023 — (Библиотека Всемирной Литературы).
4. Ролан Барт. Избранные работы: Семиотика: Поэтика: Пер. с фр. / Сост., общ. ред. и вступ. ст. Г. К. Косикова. – М.: Прогресс, 1989. – С. 83-430.



Date: 17th June-2025

5. Rayhonoy, S., & Murodov, G. (2020). Structural semiotic analysis of a literary text. International Journal of Scientific and Technology Research, 9(2), 3319-3323.

